

2022-yil – Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili

IJODIY PARVOZ

2022-yil iyul № 7 (111) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz ✓ ijodiyparvozgazetasi



O'zbekiston davlat
san'at
va madaniyat
institutining
ma'naviy-ma'rifiy,
ilmiy, ijtimoiy gazetasi

KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR SHAFFOF O'TMOQDA



Joriy yilning 29-iyul sanasidan boshlab O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Aktyorlik san'ati(estrada aktyorligi), Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi), Xalq ijodi-yoti(ashula va raqs) Aktyorlik san'ati (dramatik teatr va kino aktyorligi) yo'nalishlari bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar boshlandi.

Ijodiy imtihonlar instituttida o'quv binolarida tashkil etildi. Imtihonlar o'tkazilishidan oldin abituriyentlar ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rsatgan telefon raqamiga SMS xabarnoma yuborilib, ularga imtihon o'tkazish sanasi, joyi va vaqt ma'lum qilingan.

– Xolislik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida har bir imtihon o'tkazish joyi kuzatuv kameralari bilan jihozlandi va ota-onalar uchun farzandlarining imtihon topshirish jarayonini onlayn kuzatish imkoniyati yaratilgan, – deydi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev. – Imtihonlarni yuqori saviyada, shaffof va adaptativ o'tishini ta'minlash maqsadida malakali, o'z yo'nalishi bo'yicha tajribaga ega mutaxassislar, mamlakatimizdagi nufuzli nashrlarlarning bosh muharrirlari jalb etilgan. Abituriyentlarga gigiyena talablariga rioya qilgan holda suv va boshqa salqin ichimliklarni tarqatilishi tashkil qilingan.

Darhaqiqat, shu o'rinda aytish lozimki, imtihonlarni adaptativ va xolis o'tkazish maqsadida ijodiy imtihonlar komissiyasi raislari va a'zolari tajribali, halol, pok, mas'uliyatlari professor-o'qituvchi va xodimlardan tashkil topgan. Ijodiy imtihonlarni ota-onalar va abituriyentlardan tashkil topgan ko'ngillilar guruhi jonli ravishda imtihonlar o'tkazilayotgan xonalarga kirib, jarayonlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmogda. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, "Ovoz rejissorligi va operatorlik

mahorati" kafedrasi, "Kinoteleoperatorlik hamda Animatsiya rejissurasi" ta'lim yo'nalishi talabalari ijodiy imtihon jarayonlarini video tasvirga olib bormoqda. Shuningdek, abituriyentlarning ota-onalari va kuzatuvchilar uchun muassasa hududida imtihonni sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda tashkil etish, jarayonlarni videotranslyatsiya qilish, navbatchi tez tibbiy yordam avtomashinasi bilan ta'minlash, jarayonlar haqida tezkor axborot berish, imtihon jarayonlariga ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillari, blogerlarni taklif etish bo'yicha ham samarali ishlarni amalga oshirilgan.

– Imtihon jarayonlari videokameralar orqali yozib olinishi va zarurat tug'ilganida istagan paytda uni qayta ko'rish imkoniyatining mayjudligi ijodiy imtihonlarning ochiq, adaptiv va shaffof o'tishini ta'minlash uchun amalga oshirilgan, – deydi Namangan viloyatidan kelgan abituriyentning onasi Anvara Ergashova. – Men ham kuzatuvchi ota-onalar safida bo'lib, imtihon uchun ajratilgan xonalar va imtihon topshiruvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdim va juda mammun bo'ldim. Farzandlariga ruhiy dalda bo'lib, ular bilan hamroh bo'lib kelgan ota-onalar va mehmonlar uchun institut hududida salqin ichimliklar va shinam kutish joylari tashkil qilingani ham yanada quvonalaridir. Buni qarangki, imtihonlarni talab darajasida o'tkazish maqsadida ichki ishlarni tibbiyot xodimlari ham jalb qilingan.

O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida

Yangi O'zbekistonda kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, rag'batlanirish maqsadida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar kuni arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qaroriga muvofiq, ilm-fan, sport, san'at, tadbirkorlik hamda boshqa sohalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelayotgan bir guruh yoshlar "Kelajak bunyodkori" medali hamda "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlanishi ham yurtimiz yoshlariga bo'lagan ulkan e'tibor hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan "Yangi O'zbekiston" bog'ida tashkil etilgan bayramga tashrif buyurib, mamlakatimiz o'g'il-qizlarini tabriklab, nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari bayramga yangi chora-tadbirlarni qabul qilish takliflari bilan kelganimi ta'kidlab, yoshlar uchun yaratilajak qo'shimcha imkoniyatlarni e'lon qildi.

2022–2023-o'quv yilidan boshlab, maqom xonandaligi, maqom cholg'u ijomchiligi, baxshichilik

va fortepiano yo'nalishlariga yangi qabul qilingan talabalarning shartnomasi to'lovlar to'liq davlat tomonidan to'lab beriladi. Texnikumlarga qabul yilda 2 marta tashkil etilib, talabalar uchun davlat granti soni 2 barobarga oshiriladi. Ular uchun ham ta'lim krediti joriy qilinadi. Xususiy ta'lim muassasalarida dasturlash, veb-dizayn, animatsiya kabi kasblarni o'rganish istagidagi yoshlarga ham 20 million so'mgacha miqdorda 4 yillik imtiyozli kredit taqdim etiladi.



Davlatimiz gerbi – faxrimiz, g'ururimiz

Barchamizga ma'lumki, 1991-yilda mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekiston davlat gerbini yaratish bo'yicha tanlov e'lon qilingan. Unda Respublikaning barcha hududlaridan ijodkorlar ishtirot etgan. Tanlovga taqdim etilgan esklizlar Fanlar akademiyasi professor-o'qituvchilari va Badiiy akademiya a'zolaridan iborat komissiya a'zolari tomonidan ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, unga turli janr va texnikada ishlaydigan rassomlar ham kirgan.

1992-yil 2-iyulda "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

Davlatimiz gerbidagi barcha ramz va timssollar xalqimizning tinchlik, ezzulik, baxt-saodat, to'kinlik, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini o'zida namoyon etadi. Gerbimiz o'zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir inson uchun cheksiz faxru iftixon manbai, yoshlarimizni vatanparvarlik, ajoddarimiz an'analariga sodiq farzandlar etib tarbiyalash yo'lidagi muhim vositadir.

МУНОСАБАТ

Et bilan tirdoqqa qiyoslash mumkin

Ibrohim YO'L DOSHEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori,
filologiya fanlari doktori, professor

O'zbek va qoraqalpoq xalqi orasidagi yaqinlik haqida gap ketganda turli tashbehlari eslanadi. Et bilan tirdoq, qondosh va jondosh, og'a-ini, do'st-birodar kabi qiyosu-o'xshatishlar tilga olinadi. Bularning barchasida asos bor, biroq men bu ikki qadim va navqiron elni ildizlari teran, shoxlari osmonlarni bo'ylagan muhtasham chinorning ikki shoxiga qiyoslagim keladi. Bir zamindan unib chiqqan, bir o'zandan suv simirgan, bir quyoshdan babra olgan ulug'vor chinorga. Soyasida shu o'ikaning azim chinorday kelbatli farzandlari nafas olgan hayotbaxsh og'ochga...

Bu ikki xalqni qaysi jihatiga ko'ra farqlab bo'ladi? Har ikki xalq odamiylikda bir-biridan qolishmasa, olihimmatlik, bag'rikenglik, mehnatsevarlik bobida barobar bo'lsa. Har ikkisi ham xudbinlikdan yiroq, ochko'zlikdan xoli, bir burda nonini boshqalar bilan baham ko'rishga mushtoq mukarram xalq bo'lsa... Oila mustahkamli, farzandlar kamoli, yurt obodligi, tinchligi va saodati har ikki xalqning ham asl murodu muddaosi bo'lsa...

3

2

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'quv teatri binosida "Diplom topshirish marosimi – 2022" hisobot konsert dasturi bo'lib o'tdi.

DIPLOM TOPSHIRISH MAROSIMI – 2022

Mirzo Ulug'bek tumani hokimi va tuman prokurori, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati, professor-o'qituvchilari, ustoz-murabbiyilar, bitiruvchi talabalari hamda magistrilari, ularning ona-onalari va yana bir qator mehmonlar qatnashgan mazkur bayramona tadbirda institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev so'zga chiqib, mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar har jihatdan yetuk mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida e'tirof etib, bitiruvchilarimizga, katta hayot ostosanida turgan yoshlarimizga oq yo'l tiladi. Bitiruvchilarga o'zlarini ilm olgan sohalari bo'yicha yetuk kadrlar bo'lishlariga umid bildirdi. Kelajak hayotlarda ilmiy izlanishlarini davom ettirib, mamlakatimiz ilmiy salohiyatiga katta hissa qo'shishga chaqirdi.

Shuningdek, anjumanda 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston" bog'ida o'tayotgan bayramga tashrif buyurib, yoshlar bilan suhbatlashgani xususida to'xtalib o'tildi. Yoshlar kuni arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qaroriga muvofiq, ilm-fan, sport, san'at, tadbirkorlik hamda boshqa sohalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelayotgan bir guruh yoshlar "Kelajak bunyodkori" medali hamda "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlangani aytildi.

3



Davlatimiz gerbi – faxrimiz, g'ururimiz

Tamg'amizda tog'lar, daryolar va so'l tomoni bug'doy boshqolaridan, o'ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiylar uzoq zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurnigining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Zaminimizda necha ming yillari paydo bo'lgan afsonalarda Humo qushi baxt, omad, himmat, olijanoblik timsoli sifatida tasvirlangan. Gerbning pastki qismidagi davlatimiz bayrog'i ifodalovchi chambardasmaga "O'zbekiston" so'zi bitilgan.

Shu o'rinda aytish lozimki, "Gerb" so'zi nemischa "erbo" so'zidan olingen bo'lib, shoxlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-nasliga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi. Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyoq qadar cho'zilgan ulkan sarhadda hukm surgan qadimgi turk xoni O'g'uzxon davrida ham turkcha "tamg'a so'zi aynan shu ma'noni bildiradi edi. XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy "Tanlangan tarixlar" nomli kitobida shahodat berishicha, O'g'uzxon o'z mol-mulkini o'g'illariga ulus sifatida kichik davatlarga bo'lib, in'om etgan. Ushbu davlatlar hukmdordan ham o'zlarining xonlik tamg'alariga ega edi. Ko'rinish turibdi, "tamg'a" so'zining ma'nosi nemischa "erbo" so'zining ma'nosiga to'la mos keladi.

El-yurtimizning g'ururi, iftixori bo'lgan bu ramzlarda tariximiz, boy ma'naviyatmadaniy merosimiz, milliy urf-odat hamda an'analarimiz, buyuk maqsad, ezgu orzu tilishlarimiz tajassum topgan.

Konstitutsiyamizning 5-moddasida "O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzları – bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega", deya ramzlarimizning huquqiy asosları mustahkamlab qo'yilgani barchamizga ayon. Mustahkam huquqiy asosga ega bo'lgan bayroq, gerb va madhiyamiz esa davlat va xalq birligini namoyon etadi.

Davlat va millatning mayjudligi, xalqning mentaliteti, orzu-o'ylari, tafakkur tarzi, ruhiyatni va o'ziga xosligi uning ramzlarida aks etadi. Shu sababdan ramzlar shu yurt uchun eng muqaddas qadriyat sifatida baholanadi. Davlat ramzları orasida davlat tili va gerbi ham alohida ahamiyatga ega.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi qonunda belgilanganidek, O'zbekiston fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda turgan o'zga shaxslar davlatimiz gerbini hurmat qilishlari shart. Gerb tasviri muhrarda va davlat idoralarini blankalarida, rasmiy nashrlarda, qimmatli qog'ozlar va obligatsiyalarda, fuqarolik pasportlarida, chegaralarimizda o'natalidigan sarhad ustunlarida hamda qonunda belgilangan boshqa joylarda aks ettiriladi.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir fuqaro davlat ramzları, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtirgan gerbimiz jonajon Vatanimizning betakror timsoli, o'ziga xos va o'ziga mos davlat ramzlaridan biri bo'lib qolgani bekorga emas. Chunki, gerbimiz ham O'zbekistonimiz kabi betakror. Undagi har bir tasvir, hatto har bir chiziqda mamlakatimiz salohiyati, xalqimizning ezgu orzu-umidlar mujassam.

Shunday ekan, o'zini mama jannatmakon yurt va tabarruk zamin farzandi deb bilgan har bir inson davlat ramzlarimizni Vatanimiz kabi aziz va muqaddas deb bilishi, e'zozlashi kerak.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

Yana bir samarali hamkorlik

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev Turkiyaning nufuzli olyi o'quv yurtlaridan biri hisoblangan "Egey" universitetining Adabiyot fakulteti, Turk tili va adabiyoti bo'limi rahbari, professor Selami Fidokor bilan uchrashdi.

Muloqot davomida mamlakatimizda pedagog xodimlar va talaba yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar, institut faoliyati, bu maskanda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar haqida ma'lumot berildi. Bu olyi ta'lum dargohida san'at, madaniyat sohalarining ilm yo'lidagi mashaqqatlari mehnat sirlaridan bahramand bo'lgan, ko'plab ustoz-murabbiylar faoliyat yuritishadi. Tomonlarni qiziqitirgan masalar bo'yicha mulohazalar bildirildi.

Qayd etildiki, O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya davlatini mushtarak

til va tarix, o'xshash madaniyat va an'analarga asoslangan yaqin do'stlik hamda qardoshlik munosabatlari birlashdir turadi.

O'zaro muloqot davomida ta'lum sohasida hamkorlik qilish, ilmiy-tadqiqot loyihibarini amalga oshirish, professor-o'qituvchilarini malakasini oshirishga yuborish, axborot hamda ilmiy ma'lumotlar almashtish, ilmiy konferensiyalari va boshqa tadbirdirlarda ishtiroy etish masalalarini belgilandi.

Tadbir yakunida mehmonga tashrif va hamkorlik uchun minnatdorchilik bildirilib, esdalik sovg'alari topshirildi.



Et bilan tirnoqqa qiyoslash mumkin

1 O'zbekiston deb atalmish qutlug' diyor azal-azaldan millatidan, elatidan, madaniyati va dinidan qat'i nazar tinch-totuv yashashi mumkin bo'lgan farovon o'lka hisoblanadi. Qo'shni davlatlar bilan qadimdan do'stlik va hamijihatlikka asoslangan mustahkam aloqalarini o'matib, asrab-avaylab kelayotgan bag'rikeng mammakatdir. Ayniqsa, bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo nizolar o'rتب borayotgan bir paytda mehmondo'stlik, bag'rikenglik, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlar o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining mushtarak qadriyatlaridir.

Qoraqalpog'istonda ro'y bergan o'sha notinch va noxush vaziyat sodir bo'lgan kun barchamiz birday tashvishga tushdik. Shu kunga qadar hech bir nizosiz, tinch-osoyishta o'tib borayotgan osuda hayotimizga bir guruhi buzg'unchilar, qabib niyatli kimsalar rahna solishga urindi. O'zbek va qoraqalpoq xalqi necha asrлarni birga qaritgan buyuk xalq, bu rishtalar bir hovuch g'alamslar tufayli uzilib ketishi mumkin emas.

So'nggi kunlarda yurtimizda amalga oshayotgan demokratik islohotlarni, xususan, mamlakatimizning bosh qomusiga zamona tabalalaridan kelib chiqib o'zgartishlar kiritish masalasi xalq muhokamasiga shaffof tarzda qo'yilgan bir paytda buni hazm qila olmagan bir guruhi buzg'unchilar mamlakatda xoas yaratishga urindilar. Buni o'z vaqtida tushunib yetgandavlatrahbari Qoraqalpog'istoniga yetib borib, o'zining ma'rurasida Konstitusiyaning Qoraqalpog'istoniga tegishli muayyan bandlari o'zgartirilmasligi to'g'risida bayonot berdi. Muhtaram Prezidentimizning tashriflari bu masalada katta ijobji yechim berdi.

Bu adolatli va behad to'g'ri qaror edi. Chunki mamlakat rahbari islohotlarning aynan xalq manfaati va inson qadri uchun bo'layotganligini kuyunchaklik bilan tushuntirdi, qoraqalpoq xalqini tingladi, ularning qalbiga quloq tutdi. Mamlakatimiz yaxlitligi, tinchligini ko'ra olmayotgan yovuz kuchlarning hech qachon o'zbek va qoraqalpoq xalqining hamijihatligiga, tinchligiga, og'izbirchiligidagi raxna sola olmasligini ta'kidladi. Mamlakat rahbarining kuchli ma'ruzasi, oqilonqa so'zlar nafaqat qoraqalpoq xalqining, balki har birimizning qalbimizni to'lqinlantirib yubordi.

Xalqimizda ota-bobolarimizdan qolgan naql bor: bir kun janjal bo'lgan yerda qirq kun baraka qochadi. Ota-bobolarimiz uzoq o'tmishtan beri bir nonni, bir mayizni qirq bo'lib yeyishgan. Og'ir kunlarda bir-birlariga yelkadosh bo'lib, musibatlarini birgalikda yengib kelishgan. Bugun masalaga har birimiz institutimizning Nukus filiali barcha sharoitlarga ega binoga ko'chib o'tdi. Bugun ushbu bilim dargohi talabalari uchun zamoniaviy Talabalar turar joyi

barpo etilmoqda. Mo'ynoq tumanidagi o'zgarishlarni butun dunyo ko'rib turibdi. Institutimizning Qo'qon filiali bilan birgalikda, Mo'ynoqqa 100 ming tup ko'chat olib borib, "Qo'qon bog'i"ni yarattdik.

Darhaqiqat, shu o'rinda aytish lozimki, 2018-yilda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Qo'qon shahridagi Farg'ona mintaqaviy filiali professor-o'qituvchilarini hamda talaba-yoshlari tomonidan Orolbo'yihududi, aniqrog'i, Mo'ynoq tumanida bog' yaratishi rejalashtirildi. Vodiylar sharoitida ko'kartirilgan qaysi bir daraxt nihollari Mo'ynoq sharoitida o'sishi mumkinligi borasida ancha mulohaza yuritildi. Mo'ynoq ob-havosida Qo'qondan olib borilgan o'rik, shaftoli, olcha, olma, behi ko'chatlari u joy iqlimiga mos bo'lgan Kaliforniya teragi singari rivojlana olarmikan? Suv masalasi nima bo'ladi? Xullas, savollar, yechimini kutayotgan muammolar ko'p edi.

Nihoyat institutimizning Qo'qon va Nukus shaharlaridagi filiallari direktorlari bilan subhatalashib, Mo'ynoqda institut tashabbusi bilan bog' yaratishga qaror qildik. Qo'qonda bu umidbaxsh tashabbus qo'llab-quvvatlanib, ko'chat yig'ishga kirishildi. Fevrallning oxirlariga qadar yuz ming tup mevali daraxt ko'chatlari hamda tez o'suvchi Kaliforniya teragi qalamchalari to'plandi. Bu ishda jamoamiz bilan birga qo'qonlik saxovatpesha tadbirkorlar yaqindan ko'mak berishdi. Yuk og'ir, uni olib borish uchun esa katta mashina kerak edi. Masofa 1500 km.dan olib bo'lib, har qanday haydovchi rozi bo'lavermasdi. Shunda Xorazm tomonlardan Qo'qonga guruh olib keladigan yuk mashinalarini kudik. Nukusda ko'chatlarni institutimizning Nukus filiali direktori shogirdlari bilan kutib olib, zdul bilan Mo'ynoqqa jo'natdi. Shunda yana bir muammo chiqdi: bu yerda hanuz yerlar muzdan erimangandi-da. Oxiri tuman hokimi bilan telefonda gaplashib, yer kavlaydigan traktor topishda yordam so'radim. Katta chuquq qazilib, ko'chatlari ko'mib qo'yildi. Aks holda, sovuq ta'sirida bizning butun mehnatimiz zoye ketar edi. Mart oy o'rtasida ko'chat ekish ishlari boshlanib ketdi. Bir kuni tuman hokimi "boqqa qanday nom beramiz", deb so'rab qoldi. "San'at bog'i" yoki "Madaniyat bog'i", desak bo'larmikan, deb javob bersam, bu ko'chatlari juda olisdan – vadivning so'lim Qo'qonidan keltirilgan uchun "Qo'qon bog'i" deb nom qo'ysak, degan taklifni aytdi. Bugun bu bog' dastlabki mevalarini bera boshladи. Daraxtlar orasiga ekilgan debel barobar bo'lib, daraxtlarni suvsiz qolmasligi uchun nam saqlashga xizmat qilmoqda. Bu tadbir har ikki xalqning bir-biriga mehrini, do'stligini ko'rsatish uchun katta tashabbus edi.

Shuni alohida faxr bilan aytishimiz mumkinki, farovon kelajak uchun tuzilgan innovatsion rejalar tez orada o'z samarasini bera boshlaydi. O'shanda Qoraqalpog'iston mamlakatimizning eng go'zal hududi hamda obod va munavar bog'lar diyoriga aylanadi.

Yangi O'zbekiston va Yangi Qoraqalpog'istonni qurish yo'lida qoraqalpoq xalqi bilan bir tanu bir jon bo'lismiziga chin dildan ishonaman. Birodarligimiz, qon-qardoshligimiz abadiy bo'lsin!

O'ZBEKISTON KELAJAGI YOSHLAR QO'LIDA

Xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilarini rag'batlantrish maqsadida 70 nafar o'quvchi va ularning ustozlari davlat hisobidan Buyuk Britaniyaga safarga yuboriladi. Prezident yoshlarning bandligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Tadbirkorlik dasturlariga 220 ming nafar, kasb-hunar o'rganishga 130 ming nafar, davlat korxonalari va xususiy sektorlari bo'sh ish o'rinnariga 110 mingdan ziyod o'g'il-qizlar jalb etilishi ta'kidlandi. Internet tarmog'ida O'zbek milliy kontentini rivojlantirish dasturi amalga oshiriladi. Bu maqsadlar uchun 10 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

Joriy yildan boshlab 36 ta sport federatsiyasi, 274 ta sport maktabi

oshirilmoqda. Kuni kecha O'zbekiston Kenemotografiya Agentligi va O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bilan birga yosh ijodkorlarga moddigi va ma'naviy jihatdan yordam berish, kino sohasidagi islohotlarni davom ettirish, kino san'atiga yoshlarni kengroq jalb etish maqsadida memorandum imzolandi. Tadbir davomida O'zbekiston Kinemotografiya agentligi bosh direktori Firdavs Abduholiquva va O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga davlat buyurtmasi sifatida 1 milliard so'm beriladigan bo'ldi.

kinoga ko'proq jalb etish, dolzarb mavzudagi qisqa metrajli filmlar yaratish vazifalari belgilab olindi.

Memorandumga asosan joriy yilda institutda tahsil olayotgan yosh ijodkorlari qo'llab-quvvatlash, ular-dagi iqtidorni keng ommaga namoyon etish maqsadida O'zbekiston kenemotografiya agentligi tomonidan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga davlat buyurtmasi sifatida 1 milliard so'm beriladigan bo'ldi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida kinodramaturg, operator, rejissor, animator, ovoz rejissorlari tayloranishi inobtaga olinib, uch yo'nalishda qisqa metrajli filmlar suratga olinishi, yaratilgan filmlar joriy yilning so'ngida tanlov asosida, saralab olinishi belgilab olindi.

Boshlangan xayirli ishning birinchi yo'nalishda o'zida odob-axloq masalalari namoyon etgan uchta qisqa metrajli animatsiyon film yaratagan, ikkinchi yo'nalishda yangi O'zbekiston shukuhini madh etdigan uchta qisqa

metrajli film suratga olgan, uchinchi yo'nalishda o'zida bugungi kunning ahamiyatini va eng dolzarb masalalarini qamragan ijtimoiy mavzudagi eng yaxshi uchta film ijodkorlari pul mukofoti bilan taqdirlanishi belgilab olindi. Eng muhim, ko'zlangan maqsadning natijasiga qarab ajratiladigan pullarning miqdori yildan-yilga ortib borishi ta'kidlandi.

Ikki tomonlama tuzilgan bunday memorandum natijasida kino sohasida tahsil olayotgan yoshlar o'z iqtidorlarini namoyon etish imkoniyati vujudga keldi. Shubhaisiz, bunday tashabbus o'zbek kinosining mavqeini qayta tiklashga, yangi bosqichga olib chiqishga, ustozlar an'anasini davom ettiradigan kino ustalarining shakllanishiga poydevor yasaydi. Zero, mustaqil yurtning ertangi kelajagi bilimga, ilmga, ijodga chanqoq, iqtidorini namoyon etisha ishtiyogi qalan yoshlarning yo'lida.

Faxriddin ABDUVOHIDOV,
"Sat'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi mudiri

DIPLOM TOPSHIRISH MAROSIMI – 2022



– Sizlar bilan uchrashish, taklif va tashabbuslaringizni eshitish mena har doim quvonch va g'urur bag'ishlaydi.

Shijoat va intilishingizni ko'rib, yonib turgan ko'zlariningizga boqib, o'zimga bitmas-tugannas kuch olaman. Sizlar mana shunday katta kuch-qudrat egasisizlar, – dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari bayramga yangi choralar bilan kelganini ta'kidlab, yoshlar uchun yaratilajak qo'shimcha imkoniyatlarni e'lon qildi.

Xususan, 2022–2023-o'quv yilidan boshlab, maqom xonandaligi, maqom cholg'u ijrochiligi, baxshichilik va fortepiano yo'nalişlariga yangi qabul qilingan talabalarning shartnomasi to'lovlarini to'liq davlat tomonidan to'lab beriladi.

Texnikumlarga qabul yilda 2 marta tashkil etilib, talabalar uchun davlat granti soni 2 barobarga oshiriladi. Ular uchun ham ta'lim krediti joriy qilinadi. Xususiy ta'lim muassasalarida dasturlash, veb-dizayn, animatsiya kabi kasblari o'rganish istagidagi yoshlarga ham 20 million so'mgacha miqdorda 4 yillik imtiyozi kredit taqdim etiladi. Xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilarini rag'batlantirish maqsadida 70 nafr o'quvchi va ularning ustozlari davlat hisobidan Buyuk Britaniyaga safarga yuboriladi.

Diplom topshirish marosimida qayd etilganidek, mamlakatning kelajagi bugun kamolga yetayotgan yoshlar qo'lida. Institut tomonidan yoshlarning intilishlarini, iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash borasida juda samarali ishlar bajarilmoxda. Bugungi jadal rivojlanib borayotgan global davrda, har bir pedagog xodim yoshlarning ta'lim tarbiysi, kiyinish madaniyat darslardagi ishtiroti, amaliy hamda nazariy mashg'ulotlarda vaqtida qatnashishi, o'g'il-qizlarni o'z ustilarida tinimsiz izlanishlar olib borishlari kabi masalalarga jiddiy ahamiyat qaratmoqda. Yuksak ma'nnaviyatlari, mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarash, chuqur bilimga ega bo'lgan tashabbuskor, shijoatli

yoshlarning faolligini yanada oshirish hamda ular safini kengaytirish masalasida ustoz-murabbiylar tinimsiz harakat qilishmoqda.

Marosim davomida ta'kidlanganidek, har bir bitiruvchi hayotida mutaxassislik diplomini qo'lga kiritishi juda muhim voqeа hisoblanadi. Bu nafaqat olyi ma'lumot to'g'risidagi hujjat, balki o'zining intilishlari, harakatlari, erishgan natijalari uchun yuqori javobgarlik belgisidir. Institut professor-o'qituvchilar bu yoshlarga ko'p narsani o'rgatishdi. Bilim olish uchun qat'iy intilish va uni amalda qo'llash, qiyinchiliklarni yengish va mustaqil bo'lish, doimo o'z-o'zini rivojlantrish istagini uyg'otishdi.

Darhaqiqat, shu o'rinda aytish lozimki, so'nggi yillarda mamlakatmizda barcha sohalarda bo'lgani kabi madaniyat va san'at sohasiga katta ahamiyat qaratilmoxda. Madaniyat va san'at sohasini rivojlantrish maqsadida bir qator muhim Farmon va qarorlar qabul qilinib, hukumat tomonidan zarur hujjatlar ijroga yo'naltirilmoxda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydag'i "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4730-soni qarori qabul qilinganligi madaniyat va san'at sohasi uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Albatta, mamlakatimizda san'at, madaniyat, ma'naviyat sohalarini rivojlantrish borasida amalga oshirilayotgan bunday yuksak samarali ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziyi. Bunday e'tibor hamda g'amxo'rlik esa o'z navbatida, bizni milliy madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilishga undashi kerak. Chunki milliy madaniyat yuksak xalq jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'ladi.

Diplom topshirish marosimi davomida "Ijtimoiy madaniyat faoliyatini" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Boburjon Xo'jamqulov

"Yilning eng faol talabasi", "Ijtimoiy madaniy faoliyatini" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Pirmuhammad Xolmaxmatov "Yilning eng yaxshi san'at va madaniyat targ'ibotchisi", "Kutubxonachilik va bibliografiya" yo'naliishi 4-bosqich talabasi E'zoza Eshnazarova "Yilning eng yaxshi bitiruv-malakaviy ishi uchun", Kutubxonachilik va bibliografiya" yo'naliishi 4-bosqich talabasi Abdulla Axmatov "Yilning eng yaxshi kitobxon talabasi", Vokal ijrochiligi" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Aleksandra Rotova "Yilning eng yaxshi ayol xonandasidi", "Ashula va raqs" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Farrux Usmonov "Yilning eng yaxshi erkak xonandasidi", "Kinoteleopiratorlik" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Xojaikbar Rahimboyev "Yilning eng yaxshi filmi", Kino san'ati tanqidiga va tahlili" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Aziza Mizamova "Yilning eng yaxshi maqola muallifi", "Cholg'u ijrochiligi" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Asroriddin Yo'ichiyev "Yilning eng yaxshi sozandasidi", "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Abbas Xurramov "Yilning eng yaxshi dramaturgi", "Folklor etnografiya" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Abduaiz Karimov "Yilning eng yaxshi folklor sahnayivi asari" "Musiqali teatr aktyorligi" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Shaxriza Ashirova "Yilning eng yaxshi ayol episodik rol ijrochisi", "Estrada va ommaviy tomoshalar rejissorligi" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Behzod Bobojonov "Yilning eng yaxshi erkak epizodik rol ijrochisi", "Estrada akyorligi san'ati" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Javohir Jamilov "Yilning eng yaxshi erkak roli uchun" "Qo'g'irchoq teatr aktyorligi" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi Sarvinoz Tojiyeva "Yilning eng yaxshi ayol roli ijrochisi" "Dramatik teatri va kino aktyorligi" ta'lim yo'naliishi talabalarining "Revizor" spektakli "Yilning eng yaxshi diplom spektakli" nominatsiyalari bo'yicha taqdirlandi.

Yoshlarni mana shunday har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani ularni yanada ruhlantiradi. Vatanga muhabbat tuyg'usini yanada oshiradi va yangi-yangi yutuqlarga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, yurtimizda, xususan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida talaba-yoshlarning puxta ilm olishi, o'z iste'dodi va bilimlarini ro'yogha chiqarishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu olyi ta'lim dargohining asosiy maqsadi o'z sohasining malakali kadrlarini tayyorlash, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berish va ularning iste'doddarini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Bugun katta hayotga yo'l olayotgan yoshlar yurtimiz ravnaqi, institut kelajagi yo'lidagi egzu ishlarda o'zlarining munosib hissasini qo'shadi. Chunki ular bu dargohda ko'plab mehrli ustozlardan ilm yo'lidagi mashaqqatli mehnat sirlaridan bahramand bo'lgan.

Anjuman davomida professor-o'qituvchilar tomonidan bitiruv-chilarga diplomlar taqdim qilindi. Yoshlarga o'z mutaxassisliklari bo'yicha mashhur olim, yetuk kadr bo'lishlariga umid bildirib, kelajak hayotlarida ulkan zafarlar tilashdi. Bitiruvchilar ham qadron ustozlariga dillaridagi tashakkurlarini aytishdi.

**Mo'tabar BOYMATOVA,
O'zDSMI "Tahririyat va nashriyot" bo'limi xodimi**

KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR SHAFFOF O'TMOQDA

Imtihonga tashrif buyurgan ota-onalar tomoni dan ta'kidlanganidek, mamlakatimizda ta'lim sohasi rivojlangani sayin yoshlarning olyi ma'lumot olishga bo'lgan intilishi ham kuchayib bormoqda. Yoshlarni olyi ta'lim bilan qamrab olyish ko'sratkichi yil sayin ortmoqda. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan qarorlar, ilgari surilayotgan tashabbuslar asosida manzilli imtiyozlar kengayib bormoqda.

– Nabiram O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga hujjat topshirganidan juda quvondim, – deydi qo'shrabotlik Izzat aya Jivanova. – U hozir ijodiy imtihonni topshirmoqda. Men ham juda hayajondaman. Nabiram ijodiy imtihonlar adolatlari bo'lishiga qattiq ishonadi va bu naqadar asosli ekanligini o'zim ham ko'rib, kuzatib turibman. Ajratilgan bino va auditoriyalar sifatli videoyozuv jihatolari bilan ta'minlangan. Jamoat-chilik nazorati kuchaytirilgan. Murojaatlar bilan ishlash, call-markaz faoliyatini to'g'ri tashkil etilgan. Mana, hamma shart sharoitlar yaratilgan. Barcha imtihon qatnashchilariga omad tilayman.

– Yurtimizdagi barcha yoshlarning tashabbus va iqtidorlarini namoyon etishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning ustuvor yo'halishlaridandir, – deydi chortoqliq abituriyent Ra'xonon Ahmadjonova. – Ushbu imtihonda professor-o'qituvchilar yoshlarning iqtidori, iste'dodiga, bilim darajasiga jiddiy ahamiyat qaratishmoqda. Bu esa yoshlarning yangi qirralarini kashf etishga xizmat qilmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ular odilona va shaffof tarzda baholab borishmoqda. Mana shu jarayonlarni esa ota-onalar va boshqa xohlovchilar masofadan turib onlaysiz tarzda internet orqali to'g'ridan-to'g'ri kuzatib borishmoqda. Har bir abituriyentning ishtiroti videoyozuvga olinmoqda. O'z navbatida, men ham mahoratimni, iqtidorimni, qobiliyatimni namoyish etishga harakat qildim.

Darvoqe, korrupsiya bilan bog'liq savollarning yuzaga kelishining oldini olyish maqsadida ijodiy imtihonlar xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari, mahalla raisi, nuroniyalar vakillari, ota-onalar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ishtirotida o'tkazilmoqda hamda barcha jarayonlar so'nggi rusmida kuzatuv kameralari orqali maxsus ekranlarda va YouTube videoxostingida to'g'ridan-to'g'ri namoyish qilinmoqda.

O'zDSMI axborot xizmati

**Yangi O'zbekiston yoshlarini eskicha
fikrlashdan, ma'nан zaif va loqayd
bo'lishdan asrash yo'lida samarali
islohotlar amalga oshirilmoqda.
Kelajak avlodni barkamol inson
sifatida tarbiyalash, o'lmas milliy
qadriyatlarimizni keyingi avlodlarga
yetkazish masalasi yurtimizning
ma'rifatparvarlar ziyolilari zimmasidagi
muhim vazifa sifatida belgilanmoqda.
Eng muhimi, yoshlarni har tomonlama
komil inson sifatida tarbiyalash,
ularning ma'naviyatni yuksaltirishga
katta e'tibor qaratilmoqda. Axir, shu
ko'zmunchoq bolalarimiz ertaga
sportda, fanda, san'atda dunyoniz zabt
etsa, uning bilimi, odobiga dunyo
havas qilsa, shu bizning baxtimiz, shu
bizning faxrimiz.**

Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda: "Agar siz farzandingizga dang'llama uy qurib bersangiz – vaqtso-soati kelib, u eskirishi mumkin. Agar eng zo'r mashina olib bersangiz – uyam tez orada eskirishi mumkin. Agar unga moddiy boylik, pul qoldirsangiz – uyam bir kun sarf bo'lib tugashi mumkin. Ammo dunyoda hech qachon eskiraydig'an, yo'golmaydig'an beba bo'lib boylik borki, u ham bo'lsa, farzandingizga bergan bilim va hunardir. Lekin bilim va ma'rifatni qayerdan, nimadan olyish mumkin? Avvalo, kitob degan xazinadan".

Kitob – ma'rifatning chiroq'i, ma'naviyatning xazinasidir. Bu xazina insoniyatni ma'naviy tanazzuldan saqlab qoladi. U insonning suhbatdoshi va ongli sirdoshidir. Bu xususida ozarbayjon xalqining faylasufi A.H.Baxmanyor: "Shunday odamlarni axtaringki, ular bilan suhbat qilmoq yaxshi kitob o'qimoqqa barobar bo'lsin Shunday kitoblarni axtaringki, mutolaasi faylasuflar suhbatiga teng bo'lsin" – deganlar. Bunday armug'on kitoblar insonning zanglagan tafakkur olamini misli qurosliz zabt etadigan qo'shindir. Bu dunyo qayg'uzorlarida qalba chiroqdeq nur ato etadigan ganj kitoblar kamnamo. Chunki yozuvchi o'zini qiyab, o'lib-tirilib yozgan asargina insonlarning vuqorli aql-zehnini bo'ysindira oladi.

Alisher Navoiy "O'z vujudingga tafakkur ayligil, har ne istarsen, o'zungdin istagil" deganidek, mutolaachilar ham o'qib nimadir anglagan ziyyosini o'z yaqinlariga aylaydilar. Mening mutolaa muhabbatimga sazovori bo'lgan kitoblarning biri O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya

fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshevning "Himmatning qiymati" asari bo'ldi. Ushbu asarda insoniyatning jonu jahoni saxovat va himmat singari ahli bashariyatni ibrat olyishga da'vat etguvchi suyumli fazilatlar xususida muhim ma'lumotlar bayon etilgan.

Asardagi har bir satr va jumla ziyo tarqatishga shaylangan tongi quyosh singari – abadiyatning farzandi. Ilm tarqatish – savobdir. U insomni ziyoda va tabarruk qiladi. Hozirda ilm ahli vakillari va ziyolilarimizni asrash, o'ziligidimiz va ma'naviyatimizni asrash dolzarb va e'tibor talab jarayondir. Bizningcha, "Himmatning qiymati" bu jarayonda yoshlarga foydali va kerakli asar bo'ladi.

Ustozimiz S.To'ychiyeva "chin yurakdan yozsangiz, chin yurakka yetib boradi. Chin yurakdagi so'zni yozsangiz, chin yurakni ishg'ol qila olasiz" – degan gaplari mening yodimda qolgan. Xayolimda ham bu oddiy so'z muhir qotgan. "Himmatning qiymati" chin yurakdan yozilgan va mening qalbimni ishg'ol qila oldi. Qalb insondagi bosh a'zodir. Agar u sog'lom bo'lsa, boshqa a'zolar ham sog'lom bo'ladi. Agar u buzuq bo'lsa, boshqa a'zolar ham buziladi. Qalb insonning aqliy, ruhiy-ma'naviy hayotida jon vazifasini o'taydi. Insoniy sifatlar aynan qalbda joylashgan bo'ladi. O'sha sifatlar insondan sodir bo'ladigan xatti-harakatlar va turli amallarning asosiy manbasi bo'ladi.

I.Yo'ldoshevning "Himmatning qiymati" monografiysi kirish so'zi o'rnida, men ham qo'llimdan kelganicha Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'lab himmat va saxovatpeshalik bilangina aloqador jihatlarni yoritishga harakat qildim, – deya siyoh to'kadi. Hikmatga va himmatga ega inson ming yil yashaydi, degan gap bejiz emas.

"Himmatning qiymati" asarida ham yoshlar tarbiyasi haqida ancha-muncha insonni o'ylantiradigan, do'ppini boshdan yechib, mulohaza qiladigan so'zlar bashariyatda noyoblik tusiga aylanayotgan – mas'uliyat tushunchasini yana bir karra o'ziligidimizga qaytarishga harakat qilgandek go'yo.

Professor Q.Seydanov hozirgi yoshlar haqida quyidagiicha izohlaydi:

– Bugungi kunda yoshlarimiz qo'l telefonlar

bilan telekanallarga, internet va saytlarga qarash bilan vaqtini behuda o'tkazayotgani, kitob o'qishga unchallik ahamiyat bermayotgani ham birdan-bir haqiqat. Ya'ni mutolaachilar kamayib, kuzatuvchilar ko'paygan paytdir.

I.Yo'ldoshev O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida kitob o'qish madaniyatini oshirish borasida bir qancha ijobji ishlarni amalga oshirilmoqda. Uning ilm-fan sohasi, professor-o'qituvchilarining intellektual va ijodiy salohiyatni, talabalarning davr talablarini darajasida ta'lim olishi uchun qo'llan kelmoqda. XXI asr o'zbek kitobat olamining buyuk siyoshi sifatida yoshlar tafakkurini boyitish ilinjida yozgan asarining mohiyatida ham mufassal mushohadalar me'mori ekanligini anglaydi. Matnlardagi har bir jumla, har bitta so'zni tahlil qilib, juda ajib bir xulosa chiqaradi.

I.Yo'ldoshev ham yoshlarga ma'nан yordam berish maqsadida saxovat va himmatni qayta bashariyatga eslatgisi hamda qayta jonlantirmochi bo'lgandir. Ustozimizning maqolalarini, kitoblarini o'qigan inson uming mufassal mushohadalar me'mori ekanligini anglaydi. Matnlardagi har bir jumla, har bitta so'zni tahlil qilib, juda ajib bir xulosa chiqaradi.

Xalqimizda farzandga ism qo'yish mas'uliyatlari ish hisoblanadi. Kitobga nom berish ham muallif uchun ancha qiyinchilik tug'diradigan jarayondir. Domla: "Risolaga nom berish borasida ko'p o'ylandim, ko'plab yoru do'stlarim bilan maslahat qildim, turli nomlar tavsija ham qilishdi. Baribir shu nomni qoldirishga qaror qildim", degan edi. Himmat – insoniyatga olyi ne'mat. Uning qiyamti esa yuksaklikdir. Kitob nomini o'zim hayolan "Mufassal mushohadalar me'roji" deya fahm qildim. Mufassal mushohadalar me'moridan – mufassal mushohadalar me'mori. Yangi O'zbekistonning barcha yoshlarining qo'lidan mahkam ushlab "Himmatning qiyamti" asarini o'qishga da'vat etaman.

**Mo'mminzor XOLMO'MINOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi
Asilbek QOLQANATOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti magistranti**

Inson ma'naviyatining manbai



Shaffoflikni ta'minlash – ENG MUHIM VAZIFADIR

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Mirzo Ulug'bek tumani IIO FMB vakillari ishtirokida muhim yig'ilish o'tkazidi.

Institut rahbariyati, institut Qabul komissiyasi a'zolari, professor-o'qituvchilar, ustozi-murabbiylar, tajribali olimlar, amaliyotchilar, tadqiqotchilar ishtirok etgan tadbirda korrupsiyaga qarshi kurashish hozirgi davning eng dolzarb vazifalaridan biri ekanligi ta'kidlandi. Shuningdek, korrupsiya tuzog'iga tushib qolmaslik, uning har qanday ko'rinishlariga qarshi keskin kurashish, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xodimi nomiga dog' tushirmsalik, abituriyentlar va ularning ota-onalari bilan muomala madaniyatiga, ichki tartib-qoidalarga qat'iy riyoq qilish, zimmasidagi vazifalarini halollik va mas'uliyat bilan bajarish lozimligi atib o'tildi. Ba'zi oliy ta'limgardargoharining xodimlari tomonidan sodir etilayotgan nomunosib xatti-harakatlar va faoliyatida jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yan hamda vazifalariga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lgan pedagoglar keskin tanqid qilindi.

Shuningdek, ushu ta'limgardargoharining qabul jarayonlari, kirim imtihonlarida abituriyentlarga yaratilayotgan sharoitlar, test sinovlari topshirish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, qonun buzilishi va muammoli holatlarni oldini olish borasidagi ishlarning samaradorligini yanada oshirish xususida fikr-mulohazalar bildirildi.

E'tirof etilganidek, mamlakatimiz ta'limgardargoharining amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning samarali bo'lishi ham ta'limgardargoharining qabul qaytmaydigan ayrim pedagog shaxslar nafaqat oliy o'quv dargohiga, shu bilan bir qatorda, butun jamiyatga ham ziyon yetkazadi. Pedagog hammaga o'nak bo'lib, halol ishlab, fidoyilik ko'rsatish o'rni, kishi bilmas poraxo'rlikka qo'l ursa, tamish-bilishchilik qilsa, xarom-xarish yo'l bilan topgan luqmalarini o'z farzandlariga tortiq etsa, oilasida kamolqa yetayotgan o'g'il-qizlar ertaga undan battar ochofat, yulg'ich, poraxo'r bo'lib o'sadi. Achinarlisi, xarom-xarish yo'l bilan mablag' topayotgan kishining xatti-harakatlarini ko'rgan, bilgan, hattoki, eshitgan yoshlardan nimani kutish mumkin? O'sha toifa vakillari o'sib kelayotgan yosh avlodga shunday o'nak bo'lismadimi? Axir, yurtning kelajagi bugun kamolqa yetayotgan yoshlar qo'lida ekanligini unutmasligimiz kerak.



Yig'ilish davomida ta'kidlanganidek, o'zining g'arazli maqsadi uchun har qanday tubanlikdan qaytmaydigan ayrim pedagog shaxslar nafaqat oliy o'quv dargohiga, shu bilan bir qatorda, butun jamiyatga ham ziyon yetkazadi. Pedagog hammaga o'nak bo'lib, halol ishlab, fidoyilik ko'rsatish o'rni, kishi bilmas poraxo'rlikka qo'l ursa, tamish-bilishchilik qilsa, xarom-xarish yo'l bilan topgan luqmalarini o'z farzandlariga tortiq etsa, oilasida kamolqa yetayotgan o'g'il-qizlar ertaga undan battar ochofat, yulg'ich, poraxo'r bo'lib o'sadi. Achinarlisi, xarom-xarish yo'l bilan mablag' topayotgan kishining xatti-harakatlarini ko'rgan, bilgan, hattoki, eshitgan yoshlardan nimani kutish mumkin? O'sha toifa vakillari o'sib kelayotgan yosh avlodga shunday o'nak bo'lismadimi? Axir, yurtning kelajagi bugun kamolqa yetayotgan yoshlar qo'lida ekanligini unutmasligimiz kerak.

Aytildiki, korrupsiya qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, tamagirlik kabi huquqbazarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs, shu jumladan, oliy ta'limgardargoharining qabul qaytmaydigan ayrim pedagog shaxslar nafaqat oliy o'quv dargohiga, shu bilan bir qatorda, butun jamiyatga ham ziyon yetkazadi. Pedagog hammaga o'nak bo'lib, halol ishlab, fidoyilik ko'rsatish o'rni, kishi bilmas poraxo'rlikka qo'l ursa, tamish-bilishchilik qilsa, xarom-xarish yo'l bilan topgan luqmalarini o'z farzandlariga tortiq etsa, oilasida kamolqa yetayotgan o'g'il-qizlar ertaga undan battar ochofat, yulg'ich, poraxo'r bo'lib o'sadi. Achinarlisi, xarom-xarish yo'l bilan mablag' topayotgan kishining xatti-harakatlarini ko'rgan, bilgan, hattoki, eshitgan yoshlardan nimani kutish mumkin? O'sha toifa vakillari o'sib kelayotgan yosh avlodga shunday o'nak bo'lismadimi? Axir, yurtning kelajagi bugun kamolqa yetayotgan yoshlar qo'lida ekanligini unutmasligimiz kerak.

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi,

inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan. Mamlakatimizda 2017-yil 3-yanvar kuni "Korrupsiya qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, korrupsiya qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratilgan.

Mazkur Qonun fuqarolarga korrupsiya va korrupsiya qarshi kurashishda fuqarolarning harakati asosiy kuchga ega bo'lismeni anglab yetishimiz lozim. Shunday ekan, ushu ta'limgardargoharining pedagogik jamoasi o'z kasblari nisbatan fidoyilik xislatali yanada oshirishga intilishlari kerak.

Shunday ekan, halol yashashni yoshlikdan o'rganan odamning umri halovatda bo'ladi. Adolatsizlik, qonunga humatsizlik, kasbu amalga, ishonchga xiyonat qilib bo'lmashagini anglaydigan, poraxo'rlik va korrupsiya qarshi o'zida immunitet hosil qilgan yoshlar kelajakda jur'atl, vijdonli inson bo'lib yetishadi. Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo'lmashagini, u yaxshilik emas, balki yomonlik keltirishini tushunadi. Har qanday vaziyatda ham halol odam hayotda baxtli-saodatlari yashaydi.

Kelajakni korrupsiyasiz qurishimiz, buning uchun avvalo, o'zimizni tarbiya qilishimiz, korrupsiyaning har qanday ko'rinishini bartaraf qilish uchun birgalikda kurashishimiz zarur. Bugun butun jamiyatimiz ana shunday pokiza hayotga intilmoqda.

Samimi ruhda o'tgan hamda bahs-munozaralarga boy bo'lgan qizg'in muhokamalarda majlis ishtirokchilari o'zlarini uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'ldi. Kerakli xulosalarни chiqarib, kelgusidagi istiqbolli rejalarini belgilab olishdi.

O'zDSMI axborot xizmati

TALABA IJODXONASI

Vatanim

Vatan beshigida go'dak ugraydi,
Tinchlik qanotida allalar uchar.
Moviy osmonimning ranglari bilan,
Ona tuprog'imni oy, quyosh uchar.

Bugun tariximning nafasi tirik,
Yonadi ko'zlarda shukuh kalomi.
Qarang, o'zligimiz naqshi solingen,
Hilpirab turibdi o'zbek bayrog'i.

Nazar tuprog'idan yaralgan elim,
Mehnat o'g'itini sochar dalaga.
Mashaqqat qo'llarin o'pgancha qadr,
O'zbek dasturxonin to'ldirar nonga.

Bahor ilhomidan bo'yoqlar olib,
Jannat bog'larini qilmoqda bunyod.
Xalqim tomirida xislat ko'p asli,
Hurlik qalam-la qilmoqda ijod.

Bolalik

Ko'knin toza yomg'irlariga,
Yuragini yuvgan bolalik.
Orzularin kamalak misol,
Osmonlarga yoygan bolalik.

Sho'xliklari beozor toydek,
Anhorlarda oqqan bolalik.
Kulgulari dudoqlaridan -
Hayot bo'lib tomgan bolalik.

Qaldirg'ochdek munchoq ko'zları,
Do'stlik istab yongan bolalik.
Zavq chorlagan hayratlar ila
Yulduz larga chopgan bolalik.

Onasining allalaridan,
"Vatan" so'zin olgan bolalik.
Ertaklarning uchqur otini,
Hayot tomon solgan bolalik.

Chorlov

Bizga osmon yaqindir, erkam,
Bizga qanot sevgi nash'asi.
Qo'ling bergin qo'llarimga jim,
Chorlamoqda hayot darchasi.

Cho'qqilarga chiqaylik birga,
Boshni urmoq toshga ne foyda.
Ko'nglimizning buloqlarini,
Kel, ochanlik tanishgan joyda.

Orzuyimiz nihollarini
O'tqazaylik bo'lib mushtarak.
Rizolikning do'ppisin kiyib,
Boshim uzra qo'ndir chambarak!

Sitora ODILOVA,
O'zDSMI Kutubxona axborot
faoliyati fakulteti talabasi

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARIDA KITOB MUTOLAASINING AHAMIYATI

Azaldan xalqimiz o'z farzandlarini baxtli bo'lsin, deya yashaydi. Buning uchun ular "hozirgi murakkab va tahlikali zamonda bola tarbiyasi qanday bo'lishi kerak?", "Tarbiyaning qanday usullari bor?", "Ulardan qay yo'sinda foydalishni mumkin?" kabi savollarga javob izlaydilar. Chunki tobara globalashayotgan hayotning pedagogik muammolarga ta'limgardargoharining qanday lozimligi? Ayniqsa, ota-ona, mahalla, ta'limgardargoharining qanday usoslangan yechimlar zarur hisoblanadi.

Shu o'rinda "Buyuk kelajagimizni mard va olyijanob xalqimiz bilan birga quramiz" degan tamoyilida ta'limgardargoharining qanday usoslangan yechimlar zarur hisoblanadi. Buning uchun ularning muammolarni o'rganish va savodxonliklarini oshirish masalalarini yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat va jamaot tashkilotlari vakillari, mahalla faollari, nuroniyalar, yoshlar ishtirok etgan tadbirda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ongutafakkurini, ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirishda kitobning o'rni beqiyos ekani alohida ta'kidlanadi va bu borada chora-tadbirlar ishlab chiqilishi, amaliyotga tabtiq etilmoqda.

Bugun yoshlar uchun ta'limgardargoharining qanday usoslangan yechimlar zarur hisoblanadi. Buning uchun ularning qanday usoslangan yechimlar zarur hisoblanadi. Buning uchun ularning qanday usoslangan yechimlar zarur hisoblanadi.

ko'maklashadi. Eng muhimi, ishonchli sirdosh bo'ladi.

Shu o'rinda istiqlol arafasida ayrim yurtoshsholarimizda kitobga, kitobxonlikka qiziqish bir qadar susaygan vaqtlar bo'lganini eslaylik. Hozirgi paytda yurtimizda kitobxonlik, kitobsevarlik fazilati yana yuksalib bormoqda. "Kitob javoni – haqiqiy ziyoining eng ardoqli davlati", degan an'aana qaytdan urf bo'lmoga.

Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, "Kitob (bitig) bareha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idroknning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir". Shu ma'noda, shaklidan qat'iy nazar, barcha kitoblar milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarini targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

O'z navbatida, el-yurtimizga azalii xos bo'lgan odamiylik, insonni qadrlash, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi olyjanob qadriyatlar, insonparvarlik, xalqparvarlik va vatanparvarlik kabi yuksak tamoyillar zamondoshlarimiz qo'liga yetib borayotgan kitoblarining ahamiyati hamda qadrini yo'qtomaydigan bosh mavzulari bo'lib qolaverishiga ishonchimiz komil.

Yaqin-atrofdagi tamish oilalarimiz hayotiga sinchkov nazar tashlasak, qaysi oilada kitobxonlik madaniyati qaydarajada shakllanganligiga amin

bo'lamiz. Kimdir dunyoviy hodisalar ummonida suzib yurishni xush ko'rsa, kimlardir badiiy adabiyot osmonida sayr etishga ishtiyoqmand. Kimdir bir oya bir kitob o'qishga vaqt ajratsha, yana kimlardir bir haftada bir kitob mutolaa qilishni lozim biladi. Xullas, kitob bilan hamma o'z olamida, o'z xohish va imkoniyatlari chegarasida turli holatda yuzlashadi. Shu o'rinda, mohiyatni yanada aniqlashtirish uchun aynan bir oila misolida kitobxonlikka qaratilgan e'tibor xususida to'xtalib o'tamiz. Shunday oila borki, ular xonardonida kitob o'qish kundalik mashg'ulot, jiddiy faoliyat sifatida qadr topgan. Besh farzand o'stirayotgan bu xonardon sohib va sohibalari ham o'zlarini, ham farzandlarining kitobxon bo'lishi uchun intilishadi. O'zi tug'ilib-o'sgan oilaviy muhitida o'z vaqtida kitobga muhabbat, adabiyotga e'tibor bilan ulg'aygan, kitobxonlikni oilaviy muhim qadriyatiga aylanitirgan bu insonlar bugun farzandlarining ham kitob atalmish buyuk va bebafo xazinadan bahramand bo'lib, ma'naviy barkamollikka erishishini istaydi. Buning uchun, ham ota, ham ona o'z vaqt va imkoniyatiga qarab, sermazmun, badiiy-estetik ahamiyati yuqori turli adabiy janrdagi, jahon va o'zbek adabiyoti durondalarini, diniy-ma'rifiy sarchashmalarni tanlab xarid qilishadi. Bu asarlarni farzandlarining yosh va qiziqishlari, aqliy salohiyati, o'zlashtirish qobiliyatlari e'tiborga olgan holda taqsimlab berishadi. Eng muhimi, kitob taqdim qilinganda, hajmini ham e'tiborga olgan holda, mutolaa uchun muayyan vaqtlar ajratishadi.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3, hajmi 2/bosma taboq. Nusxasi – 319 dona. Narxi kelishilgan narxdan. Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqamini bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Shuningdek, oilaviy kitobxonlikda kitob tanlovi madaniyatiga hamma ham yetaricha ahamiyat qaratilavermaydi. Badiiy asar tanlashda farzandining yosh va fiziologik xususiyatlari, ruhiy-ma'naviy dunyosi, qiziqish va intilishlar ko'lamini nazarda tutmas ekan, har qanday kitobsevar otaona bu borada ijobjiy yutuqlarga erisha olmaydi. Ko'rindaniki, mutolaa madaniyatining ham o'ziga xos me'yor va talababli mayjud.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar bir tomonidan, azaldan kitobsevar xalqimiz shu jumladan yoshlarimizning kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish yuzasidan hozirgi zamona talababli darajasida juda keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, yaqin vaqt oraliq'ida O'zbekistonimizning tom ma'noda kitobxonlar yurtiga aylanishiga xizmat qiladi.

Inson hayoti uchun eng zarur narsalar qatorida birinchi non bo'lsa, ikkinchisi kitobdir. Non insonning moddiy ehtiyojini qondirscha, kitob ma'naviy boylik, o'zlikni anglash, eng muhimi insoniy tarbiyaning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Aynan tarbiyaviy omilning kitobxonlik darajasi bilan bog'liqligi mutolaa ishining har qanday davrda ham davlat va jamiyat uchun asosiy masala ekanligini anglatadi.

Adiba OBLANAZAROVA,
O'zDSMI Kutubxona axborot faoliyati
fakulteti "Kutubxona axborot faoliyati"
talim yo'nalishi 3-bosqich 302-guruh
talabasi

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Eldor SHERMANOV

Tahrir hay'ati:

Sobirjon JUMAYEV
Ma'rufjon YOLDOSHEV
Jumagul NISHONOVA

Mas'ul kotib:
Anvar QOBILOV

Tahririyat manzili:

10016 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.
www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3,

hajmi 2/bosma taboq.

Chop etishga 29.07.2022 yilda topshirildi.

Gazeta har oyning oxirgi haftasida "NISO POLIGRAF" MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.